

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

BERDIALIYEV BAXTIYOR ERKINOVICH

**JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK
JIHATLARI VA ULARNING OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024

Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)
Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni takomillashtirish..... 3

Бердиалиев Бахтиёр Эркинович

Криминологические аспекты преступлений против общественного порядка и совершенствование их предупреждения..... 23

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

Criminological aspects of crimes against public order and improving their prevention..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

BERDIALIYEV BAXTIYOR ERKINOVICH

**JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK
JIHATLARI VA ULARNING OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2024.2.PhD/Yu1506 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida veb-sayti (www.mgjxu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Otajonov Abrorjon Anvarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

O‘razaliyev Murod Qorayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Xo‘jaqulov Siyovush Baxtiyorovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 24-avgust soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +998971 230-32-71; faks +99871 230-32-50; jxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +99871 230-32-71; faks +99871 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 12-avgustda tarqatildi.

(2024-yil 12-avgustdagi 41-raqamli reestr bayonnomasi).

M.X.Rustambayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, yu.f.d., professor

G.B.Nurmuhammedova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yu.f.f.d.(PhD), dotsent

M.B.Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yu.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda xavfsizlikni ta'minlashda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olish muammosi tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va odil sudlov bo'yicha 12, 13-Kongresslarida ushbu masala milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi eng dolzarb muammolardan biri ekanligi alohida qayd etilgan¹. Huquqbuzarliklarning yangi shakllarining ko'payishi oqibatida yil dunyo bo'yicha ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotganlar soni ko'payotganligini ko'rish mumkin. Bu esa o'z navbatida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olish tizimni isloh qilish, bunday jinoyatlarning oldini olishni zamonaviy va yanada samarali mexanizmini ishlab chiqish zarurati mavjudligidan dalolat beradi. Shu bois jazo choralarini kuchaytirish orqali huquqbuzarliklarga qarshi kurashish emas, balki huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Jahonda taraqqiyot va xavfsizlikka raxna solayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, transmilliy jinoyatlar va yot g'oyalar ta'sirining tobora kuchayib borayotganligi ularga barham berish va o'z vaqtida oldini olish bo'yicha zamonaviy va samarali tizimni yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasini jinoyatchilikka qarshi kurashishning bosh yo'nalishiga aylantirish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha puxta o'ylangan va izchil harakatlarni davom ettirish zarurati oshib bormoqda. Yer yuzida huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murossasizlik munosabatini singdirish, profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasining zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish tizimini takomillashtirish istiqbollarini tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni takomillashtirishga doir o'ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berilganligi natijasida fuqarolarni turli huquqbuzarliklar va jinoyatlardan muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 16-maqsadi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratishdan iborat bo'lib,

¹ <https://www.un.org/development/desa/publications/publication/page/2>

huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish”¹ hamda bunda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni takomillashtirish va uni tadqiq etishning muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2010), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2014) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2021), «Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha choratadbirlar to‘g‘risida”gi (2021) Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021), “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021), “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2024) Farmonlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni ayrim jihatlari Q.R. Abdurasulova, B.F. Alimov, Z.A. Amirov, B.A. Arifdjanov, Z.S. Zaripov, M.Z. Ziyodullayev, I. Ismailov, N.T. Ismoilov, Y.M. Karaketov, A.K. Kozubayev, B.A. Mirenskiy, K. Mirzajanov, I.M. Mirzaraimov, J.S. Muxtorov, A.A. Otajonov, M.A. Rajabova, M.X. Rustambayev, Q.A. Saitqulov, F. Taxiroy, R.A. Turdiyev, A.S. Tursunov, S.B. Xo‘jaqulov, Sh.R. G‘ofurov M.Q. O‘razaliyev, M.J. Eshnazarov, R. Jabbarbergenovlarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o‘rganilgan.

S.B. Xo‘jaqulov “Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (Ichki ishlar organlari faoliyati misolida)” mavzusida N.T. Ismoilov “Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini individual oldini olish muammolari”, B.M. Umarov “O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari”, Sh.R. G‘ofurov “Uyushmagan yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/>

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-10-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6755597?ONDATE=16.01.2024%2000>

profilaktikasini takomillashtirish (Ichki ishlar organlari faoliyati misolida)” mavzularida M.J.Eshnazarov “Huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi” tushunchasining mazmuni to‘g‘risida”gi mavzusida tadqiqot ishlari olib borishgan. Mazkur tadqiqotlarda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishning ayrim masalalari o‘rganilgan¹.

Xorijiy olimlardan Y.M.Antonyan, Y.Alauxanov, A.Avanesov, M.M. Babayev, C.B.Veklenko, V.P.Vlasov, P.F.Grishanin, I.I.Danshin, H.H.Korjanskiy, I.Y.Kozachenko, Y.A.Krasikov, A.B.Kuznetsov, P.F.Kuznetsova, Y.I.Lyapunov, Y.F.Lubshev, I.P.Portpov, B.V.Trufanov, V.M.Chxivadze, D.Y.Yurovskiy, N.P.Dubinin, V.I.Belospudsev, V.M.Kogan, I.I.Karpes, V.N.Kudryavsev, Z.Freyd, A.Ketle, M.V.Malchanova, S.V.Fedyayev, O.A.Petryanina, Y.B.Kurguzkina, S.V.Polubinskaya, E.A.Xasmamedov, V.A.Mishota, S.V.Fomov, O.V.Strakov, F.V.Gobechiya, M.S.Narikbayev, A.A.Gersenzon, S.S.Ostroumov, N.F.Kuznetsova, Y.S.Jigarev, Y.V.Samiulina, X.V.Xrenov, A.F.Matyunin, K.Y.Loginovalar tomonidan jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularni oldini olishning ayrim jihatlari o‘rganilgan. Ammo, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni takomillashtirish mavzusida tadqiqot olib borilmaganligi bois uni o‘rganish zarurati mavjuddir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari kompleks dasturining “Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni takomillashtirish” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni takomillashtirishga qaratilgan taklif, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- jamoat tartibi tushunchasining nazariy tahlilini amalga oshirish;
- jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlarini aniqlash;
- jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga oid milliy va xorijiy qonunchilik normalarining qiyosiy-huquqiy tahlilini tadqiq etish;
- jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari tahlilini amalga oshirish;
- jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifini ishlab chiqish;
- jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etilishini taqozo etuvchi omil(determinant)larni tahlil etish;
- jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar profilaktikasining bugungi holati tahlilini amalga oshirish;
- jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishni takomillashtirish asosiy yo‘nalishlarini tadqiq etish;

¹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish hamda taklif va tavsiyalar berishdan iboratdir.

Tadqiqotning obyekti sifatida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni takomillashtirishga oid yuridik fandagi konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar, shuningdek, mazkur jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo'llash amaliyoti tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda bilishning ilmiy usullaridan – tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, kuzatish, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik usullar, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, anketa so'rovlari, statistik ma'lumotlar tahlili, funksional yondashuv, tizimlilik, tergovga qadar tekshiruv organlari faoliyati tahlili, surishtiruv-tergov amaliyoti hamda jinoyat ishlarini o'rganish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamoat joyi bu – sutkaning har qanday vaqtida shaxslarning bo'lishi, erkin harakatlanishi va to'planishi mumkin bo'lgan shuningdek, qonunchilik hujjatlariga muvofiq kirish (chiqish) tartibga solingan obyektlar (ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, stadionlar, ish joylari, barcha turdagi jamoat transportlari jamoat joylari hisoblanishi asoslab berilgan;

“Jamoat xavfsizligi” tushunchasiga qonun hujjatlarida aniq va yagona ta'rif berilmaganligi sababli, jamoat xavfsizligi deganda – shaxs, jamiyat va davlatning jinoyatchilik, boshqa huquqqa xilof harakatlar, favqulodda holatlar oqibatlari, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiya, epizootiya, yirik halokatlar, avariya va yong'inlardan himoyalanganlik holati tushunilishi lozimligi hamda ushbu tushuncha huquqiy hujjatlarda aks etishi lozimligi asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalari va ichki ishlar organlarining kuch va vositalaridan jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida joylashtirish zarurati sababli, ulardan kompleks foydalanish va boshqarish uchun “Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etiladigan kuch va vositalarni joylashtirish, ulardan kompleks foydalanish va boshqarish rejasi” asosida amalga oshirish lozimligi asoslangan;

jinoyat va huquqbuzarliklar ko'p sodir etilayotgan kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan hududlarda, fuqarolar ommaviy dam olish maskanlari, istirohat bog'lari, tijorat bozorlari, fuqarolar gavjum bo'ladigan joylar, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar to'planadigan va video-kuzatuv vositalari (kamaralari) bilan ta'minlanmagan joylarda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish zarurati tufayli PPX va Milliy gvardiya bo'linmalarining piyoda patrullik yo'nalishlari tashkil etilishi lozimligi asoslantirilgan;

har bir yo'nalish va postda tekshirilishi, naryadlarning alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan omillar, vazifalar va harakat qilish tartibi, vazifalari, qurilishi tugallanmagan binolar, tashlandiq va ovloq joylarni tekshirish, kafe, bar va restoranlar yopilishida mast holdagi mijozlar tomonidan janjallarning oldini olish

maqsadida bu joylarda ma'lum muddatgacha to'xtab turish, tungi vaqt faoliyat ko'rsatuvchi bu turdagi maskanlarni qo'riqlash xizmati bilan axborot almashib turishni aniq belgilab berilishi zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“jamoat tartibi”, “jamoat joyi” tushunchalariga mualliflik ta'rifi berilgan;

“jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilik”, jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilik tarkibi”, “jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilik dinmaikasi” kabi tushunchalarga ta'rif berish zarurati asoslantirgan va mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni oldini olishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonuniga ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari doirasida “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlarining faoliyatini ham o'rganib borish masalasini kiritish yuzasidan taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonuniga huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda Yoshlar ishlari agentligi o'z vakolati doirasida “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlarining faoliyatini ham o'rganib ular bilan hamkorlikni amalga oshirish masalasini kiritish yuzasidan taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonunning 3-moddasiga “Fidokor yoshlar” tushunchasiga ta'rifi berish asoslangan;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 8-bo'limida “Jamoat joyi” tushunchasini ta'rifini berish zarurati asoslantirilgan;

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni barvaqt oldini olish maqsadida “ijtimoiy profilaktika”ga muhtoj bo'lgan shaxslar bilan ishlash tizimini shakllantirish borasidagi tavsiyalar asoslantirilgan;

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning umumiy profilaktikasini samarali tashkil etish metodikasi ishlab chiqish lozimligi asoslantirilgan;

jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni barvaqt oldini olish maqsadida “O'zbekiston Respublikasida “Xavfsiz hudud” tajribasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomasi ishlab chiqish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyotiga asoslangan. Shuningdek, sotsiologik tadqiqotlar, anketa so'rovi (300 nafar sud-tergov amaliyoti xodimlari ishtirokida) o'tkazilgan, statistik ma'lumotlar va 200 dan ortiq jinoyat ishlari va sud hukmlarining tahlili natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan bo'lib xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ular yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan hamda olingan natijalar vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning *ilmiy ahamiyati* shundaki, muallif tomonidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga berilgan kriminologik tavsifdan amaliyotda foydalanilishiga, o'rganilgan jinoyatchilikning sabablari va ularga imkon beragan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilikning sifat

ko'rsatkichlari bo'yicha statistikaning yuritilishiga, mazkur jinoyatchilikning oldini olish choralari takomillashtirish hamda nazariy bilimlarni boyitish va yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatni yaratadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari hamda ularning oldini olishni tartibga soluvchi qonun normalari va ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, tegishli qonun normalarini sharhlashda, "Kriminologiya", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" va "Viktimologiya" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, kelgusidagi ilmiy-tadqiqotlarda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

jamoat joylari tushunchasi qonun hujjatlarida aniq ta'rif berilishi lozimligi borasidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 20-fevraldagi «Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 77-sonli bo'yrug'i bilan tasdiqlangan «Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomining 1-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan. (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 5-dekabrda 26/5-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishda jamoat joyi tushunchasini qonun hujjatlarida aniq belgilanishiga xizmat qilgan;

"Jamoat xavfsizligi" tushunchasiga qonun hujjatlarida aniq va yagona ta'rif berilishi zarurati borasidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 20-fevraldagi «Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 77-sonli bo'yrug'i bilan tasdiqlangan «Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomining 1-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan. (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 5-dekabrda 26/5-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi "Jamoat xavfsizligi" tushunchasini turli xilda talqin etilishini oldini olishga, shuningdek jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning oldini olishda ushbu tushunchasini qonun hujjatlarida aniq belgilanishiga huquqiy asos yaratgan;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalari va ichki ishlar organlarining kuch va vositalaridan jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida joylashtirish, ulardan kompleks foydalanish va boshqarish bilan bog'liq bo'lgan taklifi O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligining 2020-yil 22-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini amalga oshirish to'g'risida»gi 30-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalari va ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida joylashtirish, ulardan kompleks foydalanish va boshqarish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomaning 22-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan.

(O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 12-dekabrda 26/5-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning joriy etilishi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishda subyektlar faoliyatini takomillashtirish orqali samaradorlikka erishishga xizmat qilgan;

jinoyat va huquqbuzarliklar ko‘p sodir etilayotgan kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan hududlarda jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar to‘planadigan va video-kuzatuv vositalari (kameralari) bilan ta‘minlanmagan joylarda tashkil etiladigan faoliyatni aniqlash bilan bog‘liq takliflardan O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligining 2020-yil 22-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi faoliyatini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 30-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari va ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida joylashtirish, ulardan kompleks foydalanish va boshqarish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaning 12-bandini shakllantirishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 12-dekabrda 26/5-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishdagi faoliyatni samaradorligini oshirishga huquqiy asos yaratgan;

jamoat tartibiga doir jinoyatchilikni oldini olishga oid ma‘lumotlar yuzasidan axborot almashib turishi aniq belgilab berilishi bilan bog‘liq takliflardan O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligining 2020-yil 22-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi faoliyatini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 30-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari va ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida joylashtirish, ulardan kompleks foydalanish va boshqarish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaning 12-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 10-dekabrda 26/5-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi axborot almashib turishi aniq belgilab berilishi orqali jamoat tartibiga doir jinoyatchilikni oldini olishga oid faoliyatni takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shundan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta (shundan 1 ta xorijda) jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, tadqiqot etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi nazariy-huquqiy tahlili”** nomli birinchi bobida jamoat tartibi tushunchasining nazariy tahlili amalga oshirilgan; jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlarini aniqlash; jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga oid milliy va xorijiy qonunchilik normalarning qiyosiy-huquqiy tahlili o‘rganilgan.

Muallif ushbu bobda “Jamoat tartibi”, “Jamoat xavfsizligi”, “Jamoat tartibini saqlash faoliyati” tushunchalarning mazmun-mohiyati va ularning farqli jihatlarni ochib beradi. Muallifning fikricha, “Jamoat tartibi” “Jamoat xavfsizligi”ga qaraganda kengroq tushuncha ekanligini hamda “jamoat tartibini saqlash faoliyati” “jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyati”ga nisbatan tor tushuncha ekanligini qayd etib, u bevosita ichki ishlar organlarining tegishli xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi, deb ta‘kidlaydi.

Muallifning fikricha, jamoat tartibini saqlash faoliyatning ichki ishlar organlaridagi boshqa faoliyat yo‘nalishlaridan farqli jihati uning muayyan joylarda amalga oshirilishidir. Jamoat tartibini saqlash joylarini ikkiga: *jamoat joylariga* va *aholi turar joylariga* ajratish mumkin.

Fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi yoki jamoat xavfsizligiga tahdid ommaviy tadbir o‘tkazish qoidalarini buzilganda, bunday tadbirlarni o‘tkazish joyi tayyor bo‘lmaganda yoki ommaviy tadbirlar vaqtida ko‘plab fuqarolarning harakat yo‘nalishlari va tartibi belgilanmagan vaqtlarda ham vujudga kelishi mumkin. Fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat xavfsizligiga tahdid tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda ham albatta yuzaga keladi.

Huquqshunoslik fanida “jamoat tartibi” tushunchasiga olimlar turli ta‘riflar berganlar. Bu tushunchaning ta‘riflari xilma-xil, ammo bu borada yakuniy ta‘rif mavjud emasligi yuzasidan baxs munozaraga kirishib, “Jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalari o‘rtasidagi munosabat masalasi ma‘muriy huquq nazariyasida noaniqdir. Shulardan kelib chiqib tadqiqotchi “jamoat tartibi”ga quyidagicha mualliflik ta‘rifini beradi. Jumladan, *“Jamoat tartibi – bu fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, jamoat tashkilotlarining normal faoliyat ko‘rsatishi, fuqarolarning mehnat qilishlari va dam olishlari uchun to‘liq sharoit yaratishga, ularning sha‘ni, qadr-qimmatini hamda umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilishga yo‘naltirilgan, huquqiy va ijtimoiy*

me'yorlar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi"dir.

Tadqiqotchi, jamoat tartibi tushunchasining o'ziga xos quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatadi. Jumladan: Jamoat tartibi mazmuni-odamlarning jamoat joylardagi xulq-atvori, xatti-harakati va nohuquqiy xarakterdagi huquq va qoidalar me'yorlarini bajarish va ularga rioya qilish natijasida yig'ilib boriladigan yurish-turishlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar tizimi ekanligi;

Jamoat tartibini boshqarish vositalari – nohuquqiy xarakterdagi (axloq, urf-odatlar normalari, xulq-atvor madaniyat qoidalari) huquqiy me'yoriy va qoidalardan tashkil topganligi;

Jamoat tartibini o'rnatish va qo'llab-quvvatlashdan maqsad-fuqarolarning hayotini, sog'lig'i, vijdoni, qadr-qimmatini, boshqa huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat osoyishtaligini, davlat jamoat tashkilotlarining normal faoliyat ko'rsatishlari uchun shart-sharoitlarni ta'minlash lozimligi bilan ajralib turishidir.

Disertant "Kriminologiya" fani nazariyasida va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 8-bo'limida "Jamoat joyi" tushunchasiga ta'rifni berish lozimligini ta'kidlaydi. Bunday ta'rifni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2002-yil 14-iyundagi "Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi Plenum qarorida ham berish lozimligini asoslaydi.

Jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning ayrim turlari masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan ko'pgina moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlari jamoat tartibini buzib sodir etiladi. Jumladan, bezorilik oqibatida qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JKning 104-moddasi, 2-qism "e" bandi), terrorizm (JKning 155-modda), ommaviy tartibsizliklar (JKning 244-modda), jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish (JKning 244¹-modda), diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (JKning 244³-modda), karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish (JKning 244⁵-modda), yolg'on axborot tarqatish (JKning 244⁵-modda), o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (JKning 247-modda), o'qotar qurolning, o'q-dorilarning, o'qotar qurol asosiy qismlarining, portlovchi moddalarning, portlatish vositalarining yoki portlatish qurilmalarining qonunga xilof muomalasi (JKning 248-modda), bezorilik (JKning 277-modda), qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish (JKning 278-modda), giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar (JKning 270-276-modda)lar shu kabi turlarini tashkil qilishi yuzasidan fikrlar berib o'tadi.

Dissertant mazkur bobda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olish bilan bog'liq milliy qonunchilik normalari hamda bu boradagi xorijiy davlatlar qonunchiligi normalarini qiyosiy tahlil etib, tegishli taklif va tavsiyalar bergan .

Dissertatsiyaning "**Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik tavsifi**" nomli ikkinchi bobida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning miqdor va sifat

ko'rsatkichlari; jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifi hamda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etilishini taqozo etuvchi omil(determinant)lar tahlil etilgan.

Tadqiqotchi mazkur bobda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini tahlili natijasida "Jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilik", "Jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilik tarkibi", "Jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilik dinamikasi" kabi tushunchalarga mualliflik ta'rifi berib o'tadi. Masalan, *jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilik – muayyan makon, mintaqada ma'lum davr ichida sodir etilgan barcha jinoyatlar majmui ko'rinishidagi tarixan o'zgaruvchan, salbiy, obyektiv va ijtimoiy hodisa ekanligi asoslab berildi.*

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatchilik dinamikasiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatishi ham tadqiqot ishda o'rganilgan. Jumladan ularning eng muhimlarini *ijtimoiy va yuridik omillarga* birlashtirish mumkinligini qayd etadi.

Mazkur bobda tadqiqotchi *birinchidan*, jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar, ayniqsa bezorilik jinoyatlarining jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari tahlili bugungi kunda mazkur qilmishlarning ijtimoiy xavfi ortib borayotganligini; *ikkinchidan*, jamoat xavfsizligi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yangi institutsional tuzilmalar, tartib-qoidalar va mexanizmlar joriy etilganligiga qaramasdan jamoat joylarida sodir etilayotgan, xususan bezorilik jinoyatlarining o'sib borishi, ularga qarshi kurashda hali hanuz eskicha usullar, ya'ni jinoyatlarning oqibati bilan kurashib kelinayotganligini; *uchinchidan*, jamoat joylarida sodir etilayotgan jinoyatlar, xususan bezorilik va qimor o'yinlarini tashkil etish, bezorilik natijasida tan jarohatini yetkazishlar, ularni sodir etuvchi shaxslar, shuningdek ularning sabab va sharoitlarini kompleks ilmiy tadqiq qilish zarurati yuqoriligicha qolayotganligini; *to'rtinchidan*, jamoat joylari va unga tutash hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, xavfsizlik qoidalari va talablari o'rnatilishiga, ularga rioya etilishi uchun shart-sharoit yaratishga mas'ul subyektlarning jamoat tartibiga qarshi huquqbuzarliklar, shu jumladan jinoyatlar barvaqt profilaktikasi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlari va javobgarligini qonunchilik hujjatlarida aniq belgilash zarurligini; *beshinchidan*, jamoat joylarida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida o'rnatilgan video kuzatuv qurilmalari va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalangan holda huquqbuzarliklar, shu jumladan jamoat tartibiga qarshi, xususan bezorilik jinoyatlarining barvaqt profilaktikasi amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish kerakligini asoslaydi.

Bundan tashqari, tadqiqotchi ushbu bobda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar tahlilini o'rganib, ularni quyidagi tiplarga: a) zo'ravon shaxs tipi – bu tipga odatda maishiy zaminda bezorilik harakatlari, bezorilik natijasida odam o'ldirish va badanga shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslarni kiritish mumkinligi; b) g'araz maqsadli – zo'ravon tip – shaxsiy, avvalambor moddiy manfaatlarga har qanday yo'l bilan, jumladan, inson hayotini garovga qo'yib bo'lsa ham erishishni nazarda tutadigan g'ayriijtimoiy qarashlarni puxta o'zlashtirgan, ijtimoiy xavflilik darajasi juda yuqori bo'lgan shaxslar tipiga; v) tamagir tip – jinoyatchilarning g'arazli tipiga xos bo'lgan motivatsiya, shu jumladan oilaviy barqarorlikni ta'minlash zarurati bilan bog'liq motivatsiyali shaxs tipiga; g) ehtiyotkor bo'lmagan tip – qonun-qoidalarga yengiltaklik, mas'uliyatsizlik bilan,

loqayd munosabatda bo‘ladigan shaxslar – tasodifan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etadigan shaxslarga; d) qaram tip – bu tip vakillariga giyohvandlik vositalari, spirtli ichimliklar yoki oilasi yoxud ishxonada qaramlik tufayli turli jinoyatlar sodir etuvchi shaxslar tipiga bo‘lib o‘rganadi.

Shuningdek, jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchi shaxsining kriminogen motivatsiyaning yuqoriligiga ko‘ra, jinoyatchilarni: a) tasodifiy jinoyatchilar – tasodifiy holatlar natijasida, o‘zining avvalgi xulq-atvorining umumiy tavsifiga zid ravishda jinoyat sodir etganlar; b) vaziyatga bog‘liq jinoyatchilar – beqaror shaxsiy xususiyatlar va turmush sharoitlarining ta‘sirida jinoyat sodir etganlar; v) beqaror jinoyatchilar – jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalaridan voz kechgan, biroq shunga qaramasdan ularni qat‘iy o‘zlashtirib olmaganlar; g) professional jinoyatchilar – jinoyat sodir etish orqali o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishishga qat‘iy intiladiganlar tipiga bo‘lib o‘rganadi.

Dissertant jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud bo‘lgan salbiy hodisa, voqea, jarayonlar keltirib chiqarishi yuzasidan ham o‘z fikrlarini berib o‘tadi. Har qanday jamiyatda, uning rivojlanishining barcha bosqichlarida ijtimoiy-psixologik sabab va sharoitlarni keltirib chiqaradigan obyektiv hamda subyektiv sabab va sharoitlar mavjud ekanligi, lekin ular turli darajada bo‘ladi. Har qanday muayyan jinoyat sodir qilinishi asosida yotgan ijtimoiy-psixologik hodisalar, ya‘ni g‘ayriijtimoiy qarashlar, odatlar, ko‘nikmalar, niyyatlar, xulq-atvor subyektiv sabab va sharoitlar, deb ataladi. Shaxsdan tashqarida bo‘lgan va uning psixologiyasiga ta‘sir qilib, unda g‘ayriijtimoiy qarashlar, odatlar, xulq-atvorni shakllantiradigan, uni mustahkamlaydigan hodisa, voqea, jarayonlar esa obyektiv sabab va sharoitlar deb atalishi, bu esa jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir etishiga sabab bo‘lishi bilan bog‘liq fikrlarni ilgari suradi.

“Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishning bugungi holati va uni takomillashtirish”, deb nomlangan ishning uchinchi bobida tadqiqotchi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar profilaktikasining bugungi holati tahlilini amalga oshirgan; jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishni takomillashtirish asosiy yo‘nalishlari va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishda xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilib, mazkur jinoyatning oldini olish borasida tavsiyalar berilgan.

Mazkur bobda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olishda faoliyat yuritayotgan subyektlar qatori “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlarining roli ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlanib, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunga asosan ichki ishlar organlarining vakolati doirasida *“Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlarining faoliyatini ham o‘rganish kabi vakolatlarni ham kiritish lozimligi asoslangan.*

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olish maqsadida “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhleri shakllantirilgan bo‘lsa-da, ularning biror bir normativ huquqiy hujjatlarda tushunchasi berilmaganligi hamda aniq vazifalarini va ular faoliyati bilan bog‘liq masalalarni belgilab beradigan normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilmaganligini e‘tiborga olib, “Fidokor yoshlar” tushunchasiga ta‘rif berish lozimligini asoslangan. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuning 3-moddasi 8-xatboshisini “*Fidokor yoshlar*” tushunchasi bilan to‘ldirish taklif etilgan.

Shuningdek, mahallalarda huquqbuzarliklarni jilovlash bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlarning “ijtimoiy profilaktika”ga muhtoj bo‘lgan shaxslar bilan ishlashi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, ayrim turdagi jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va unga imkon bergan omillar ilmiy asoslangan holda o‘rganilmay, alohida yondashuv asosida ishlash metodikalari yaratilmaganligi hamda uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli hududda jinoyatchiligi yuqori bo‘lgan “qizil” va “sariq” toifadagi mahallalar sonining ortib ketishining oldini olish maqsadida mahallalarda “ijtimoiy profilaktika”ni kuchaytirish orqali jinoyatchilikni jilovlashga qaratilgan “*Xavfsiz hudud*”, “*Xavfsiz shahar*” tajribasini joriy etish borasida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozimligi ta’kidlangan.

“Ijtimoiy profilaktika”ga muhtoj bo‘lgan shaxslar bilan *individual ishlash tizimini* joriy etish;

aholini qiynab kelayotgan ijtimoiy va kriminogen muammolari aniqlash va hal etish maqsadida *monitoring* tizimini yaratish;

ayrim aholi toifasini ahvolini yaxshilash maqsadida “*ijtimoiy profilaktika*” *ishlarini* amalga oshirish;

“oila-mahalla-maktab-mustaqil hayot” tamoyili asosida har bir nazoratsiz yoki qarovsiz, huquqbuzarlik, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganlar, huquq-tartibot organlari, davlat va jamoat tashkilotlarining rahbarlariga biriktirish orqali ular bilan *yakka tartibda ishlash tartibini yo‘lga qo‘yish*;

sodir etilgan jinoyatlarni “*mahallabay*” o‘rganish orqali ularning oldini olish bo‘yicha ilmiy asoslangan *metodikalarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish*;

ayollarni ish bilan ta‘minlash, ularga *huquqiy, ijtimoiy, tibbiy* hamda *moddiy* yordam ko‘rsatish orqali jinoyat sodir etilishini kamaytirish kabi ishlarni amalga oshirish tavsiyalari ilgari surilgan.

Bundan tashqari, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning barvaqt oldini olish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida “Xavfsiz hudud” tajribasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma ishlab chiqish taklif etilgan (Yo‘riqnoma ilova qilinadi).

Mazkur bobda xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish asosida aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan shug‘ullanuvchi ichki ishlar organlari, xususan patrul-post xizmati faoliyatini tashkil etish va boshqarish amaliyotiga: *birinchidan*, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlashni zarur axborotlar bilan ta‘minlash, hududdagi kriminogen vaziyatdan va huquqbuzarliklar faktlari haqida o‘z vaqtida xabardor bo‘lib borish va sodir bo‘lgan har qanday salbiy voqelikka o‘z vaqtida ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatlarni beruvchi axborot texnologiyalarini joriy etish hamda moddiy texnikaviy bazani yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash; *ikkinchidan*, ichki ishlar organlari, shu jumladan patrul-post xizmati faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblangan aholiga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish funksiyasini kuchaytirish va shu orqali ichki ishlar organlarini aholiga yanada yaqinlashishi, ishonchini qozonish; *uchinchidan*, ichki

ishlar organlari faoliyatini bevosita tartibga soluvchi qonunlar va maxsus qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda qabul qilish va amaliyotga joriy etish; *to'rtinchidan*, ichki ishlar organlari xodimlari, shu jumladan patrul-post xizmati xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish yo'nalishlarida joriy etish mumkinligini asoslangan.

Tadqiqotchi tadqiqot ishida kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini o'rgangan holda "ilmiy diagnoz" qo'yish orqali oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan hudud metodikasini joylarda samarali tatbiq etish, profilaktika inspektorining mahalla faollari hamda sektorlar bilan hamkorligini kuchaytirish, shaxsiy tarkibning xizmat intizomi va qonuniylikka qat'iy rioya etishi, kasbiy bilimlarini muntazam oshirish borasida ham o'z fikrlarini ilgari suradi.

XULOSA

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlari va ularning oldini olishni takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqot natijasida ilmiy-nazariy xulosalar, jinoyat qonunchilik normalarini takomillashtirish, ularni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga doir quyidagi xulosa taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

Quyidagilarning mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan:

1. *"Jamoat tartibi – bu fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, jamoat tashkilotlarining normal faoliyat ko'rsatishi, fuqarolarning mehnat qilishlari va dam olishlari uchun to'liq sharoit yaratishga, ularning sha'ni, qadr-qimmatini hamda umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga yo'naltirilgan, huquqiy va ijtimoiy me'yorlar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi"*.

